

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi



GUVOHNOMA

Yuridik shaxs

"UZAUTO MOTORS" AKSIYADORLIK JAMIYATI

Tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda yuridik shaxs - tadbirkorlik subyektining to'liq nomi

"UZAUTO MOTORS" AJ

Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi

200 244 767

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

29.08.1992

Sana

2034950

Tasdiqlandi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

AKSIYADORLIK JAMIYATI

Faoliyat yuritadigan manzil:

ANDIJON VILOYATI, ASAKA TUMANI, ASAKA, HUMO

Tomonidan berilgan:

ASAKA TUMANI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI

1140696



“TASDIQLANGAN”
“UzAuto Motors” AJ
aksiyadorlarining
2023 yil 14-iyuldagi
navbatdan tashqari umumiy
yig’ilishining 4-2023-sonli
bayonnomasi bilan.

“UzAuto Motors”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
USTAVI
(yangi tahrirda)

MUQADDIMA

Mazkur Ustav “UZAUTO MOTORS” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda “Jamiyat”) oxirgi tahrirdagi Ustavi bo’lib, Jamiyat aksiyadorlarining 2023yil 14-iyuldagi navbatdan tashqari umumiy yig’ilishining 4-2023-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va ilgari ro’yxatdan o’tkazilgan Ustavini butunlay va to’liq o’zgartiradi va o’rnini egallaydi.

Jamiyat o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni, Jamiyat Korporatib kodeksi, shuningdek O’zbekiston Respublikasining amaldagi boshqa Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

1-MODDA.

TA’RIFLAR

1.1. Mazkur Ustavning matnida atamalar va iboralar quyidagi ma’no ga ega bo’ladi:

“Affillangan shaxslar” - Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar;

“Yillik dividendlar” – yillik jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o’rtasida taqsimlanadigan qismidir;

“Qonunchilik” O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari, O’zbekiston Respublikasi ishtirokchi hisoblangan xalqaro shartnomalar, Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo’mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari;

“Taftish komissiyasi” Jamiyatning moliyaviy va iqtisodiy faoliyatini nazorat qiluvchi 15-moddada ko’rsatib o’tilgan organi hisoblanadi;

“Auditor” 16-moddada ko’rsatilgan ma’no ga ega;

“Ustav” Jamiyatning mazkur Ustavini bildiradi;

“Ustav fondi” 4.4-moddada ko’rsatilgan ma’no ga ega;

“Jamiyat” Muqaddimada keltirib o’tilgan ma’no ga ega;

“Hisoblash komissiyasi” 11.12-moddada keltirilgan ma’no ga ega;

“Ichki audit xizmatining bo’limi” Jamiyatning ichki audit xizmatining bo’limini anglatadi;

“Bosh direktor”, Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaruvchi yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi hisoblanadi;

“Hukumat” O’zbekiston Respublikasi hukumatini anglatadi;

“Davlat organi” davlat yoki mamlakatni (yoki biror-bir bo’linmani), yoki O’zbekiston Respublikasi biror-bir davlat tuzilmasini, idorasi, byurosi, komissiyasi, departament yoki shunga o’xshash organi, yoki uning muassasini, yoki har qanday davlat sudi va tribunalini bildiradi;

“Intellectual mulk” quyidagilarni bildiradi: (a) barcha ixtirolar (patentlanadigan yoki patentlanmaydigan, amalda ishlatiladigan yoki ishlatilmaydigan), ularga barcha takomillashtirishlar, shuningdek barcha patentlar, patent buyurtmalari va patentga ixtironing ta’riflari, ularning barcha keyingi nashrlari, uzaytirilishlari, qisman uzaytirilishlari va qayta ko’rilishlari, uzaytirilishlar va kayta tekshirilishlari bilan, (b) barcha savdo rusumlari, xizmat ko’rsatish belgilari, domen nomlari, maxsulotning rasmiylashtirilishi, emblemalar, savdo nomlari va korporativ nomlar, ularning barcha tarjimalari, moslashuvlari, yasalgan so’zlari va so’z birikmalari bilan, shu jumladan ular bilan bog’liq bo’lgan gud-vill, shuningdek ular bilan bog’liq barcha arizalar, ro’yxatga olishlar va tiklashlar, (s) barcha mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan ishlar, barcha mualliflik huquqlari va ular bilan bog’liq barcha arizalar, ro’yxatga olishlar va tiklashlar, (d) barcha savdo sirlari, texnik axborot va maxfiy ish axboroti (jumladan

ilmiy tadqiqotlar, nou-xau, formulalar, tarkiblar, ishlab chiqarish va tayyorlash jarayonlari va texnologiyalari, texnik ma'lumotlar, dizaynlar, chizmalar, spesifikasiyalar, mijozlar va yetkazib beruvchilarning ro'yxatlari, narxning shakllanishi va tannarx ma'lumotlari, shuningdek marketing usullari va biznes yuritish usullari, rejalar va takliflar), (e) barcha dasturiy ta'minot (jumladan modellar, algoritmlar, ma'lumotlar va tegishli hujjatlar), (f) barcha narxni shakllantirish modellari va ular bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlar, va (g) yuqorida sanab o'tilganlarning barcha nusxalari va moddiy manbalari (istalgan shaklda yoki ifodada);

“AJ to'g'risidagi Qonun” 2014 yil 6 may tahrirdagi va keyinchalik o'zgarishlarni inobatga olingan holda kiritilgan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-370-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida” gi Qonunni bildiradi;

“Zaxira fondi” 8.2-moddada ko'rsatib o'tilgan ma'noga ega;

“AUY” yoki “Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi” Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini, Jamiyatning oliy boshqaruv organini anglatadi;

“Aksiyalar” Jamiyat tomonidan hujjatsiz shaklda chiqarilgan, har biri 5000 (besh ming) So'm nominal qiymatga ega bo'lgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shaklidagi aksiyalarni bildiradi.

“Sho'ba xo'jalik jamiyati” ustav fondidagi Jamiyatning ko'pchilik ulushi borligi yoki tuzilgan shartnomaga muvofiq yoki o'zga tarzda tufayli qabul qilayotgan qarorlariga ta'sir o'tkazish imkoniyati bor bo'lgan aksiyadorlik jamiyatini yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatni bildiradi;

“Kuzatuv kengashi” Jamiyat faoliyati ustidan umumiy boshqaruvni amalga oshiruvchi Jamiyat boshqaruv organini anglatadi;

“MHXS” Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini bildiradi.

“BHMS” O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlarini bildiradi.

“Vakolatli diler” Jamiyatni chakana savdo qilish va mahsulotlarga xizmat ko'rsatish uchun jalb etadigan va Jamiyat bilan amaldagi dilerlik shartnomasiga ega bo'lgan tashkilotni anglatadi.

1.2. Talqin etish

Mazkur Ustavda, agar kontekstga ko'ra boshqacha holat talab etilmasa:

(a) ushbuda keltirilgan termin so'zlar birlik ma'nosidagi so'zlarni yoki ko'plikni anglatishi mumkin yoki teskarisi, erkakni bildirishi mumkin bo'lgan so'zlar ayolni, shaxssizni ham bildiradi yoki teskarisi;

(b) “kun” yoki “kunlar”ga havolalar taqvim kunlarini bildiradi;

(c) Bo'limlar, Moddalar, Bandlar va Muqaddimaga havolalar mazkur Ustavning bo'limlari, moddalari, bandlari va muqaddimaga tegishli bo'ladi;

(d) “shu jumladan” yoki “o'z ichiga oladi” degan havolalar shu jumladan kirganlarni yoki o'z ichiga olinganlarni cheklashsiz bildiradi.

2-MODDA.

JAMIYATNING NOMI, MANZILI VA YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyatning to'liq firma nomi:

O'zbek tilida: Lotin yozuvida: “UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyati;

Kirill yozuvida: “UzAuto Motors” акциядорлик жамияти;

Ingliz tilida: “UzAuto Motors” Joint Stock Company;

Rus tilida: Акционерное Общество «UzAuto Motors».

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

O'zbek tilida: "UzAuto Motors" AJ;
Kirill yozuvida: "UzAuto Motors" АЖ;
Ingliz tilida: «UzAuto Motors» JSC;
Rus tilida: АО «UzAuto Motors».

2.2. Jamiyatning manzili va yuridik/pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 170200, Andijon viloyati, Asaka shahri, Humo kuchasi, 81.

2.3. Jamiyat elektron pochta-sining manzillari: info@uzautomotors.com Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.uzautomotors.com

2.4. Jamiyat Qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday qonuniy faoliyat turlarini amalga oshiradi.

2.5. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi. Aksiyadorlarning hech biri Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning qanoatlantirish uchun Aksiyadorlarning har biri o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida to'laydilar. Jamiyat o'z Aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, Aksiyadorlarning hech biri biror-bir Aksiyador qarzlari yoki majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi, agarda Aksiyadorlar o'rtasida yozma ravishda Aksiyadorlar tomonidan bajarilishi majbur bo'lgan boshqacha kelishilgan bo'lmasa.

2.6. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.7. Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka ega bo'ladi, shu jumladan uning Ustav fondiga topshirilgan mustaqil balansida hisobga olinadigan mol-mulkka ega, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar yoki javobgar bo'lishi mumkin.

2.8. Jamiyat o'z xo'jalik faoliyatini Qonunchilik va Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

2.9. Jamiyat mustaqil balansiga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining vakolatli banklarida chet el valyutasidagi bank hisob raqamlariga, shuningdek chet elda bank hisob raqamlariga ega.

2.10. Jamiyat to'liq firma nomi davlat va ingliz tilida ifodalangan dumaloq muhrga hamda burchak shtamplariga va firma blankalariga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatga olingan tovar belgisiga hamda aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqlidir.

2.11. Jamiyat Qonunchilikga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan tashkarida tegishli chet el davlatining Qonunchilik hujjatlariga muvofiq filiallar va vakolatxonalarini, shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini ochishga haqlidir.

2.11.1. Filiallar va vakolatxonalar yuridik shaxslar hisoblanmaydi va o'z faoliyatini Jamiyat tomonidan tasdiklangan Nizomlar asosida amalga oshiradi. Jamiyat o'z filiallarini va vakolatxonalarini mol-mulk va aktivlar bilan ta'minlaydi.

2.11.2. Filiallar va vakolatxonalar Jamiyat balansining tarkibiy kismi hisoblanadigan o'z balansiga yoki smetasiga ega bo'ladi.

2.11.3. Filiallar va vakolatxonalarining rahbarlari Jamiyatning Ijroiya organi tomonidan tayinlanadi va Jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

2.11.4. Jamiyat Toshkent shahrida va Xorazm viloyatining Pitnak shahrida o'z filialariga ega.

2.11.4.1. Jamiyatning Toshkent shahridagi filiali:

(a) Filialning to'liq nomi:

O'zbek tilida: "UzAuto Motors" AJ Toshkent filiali;

Ingliz tilida: Branch of «UzAuto Motors» JSC in Tashkent;

Rus tilida: филиал АО «UzAuto Motors» в городе Ташкенте.

(b) Filialning qisqartirilgan firma nomi:

O'zbek tilida: «UzAuto Motors» AJ Toshkent filiali;

Ingliz tilida: Branch of "UzAuto Motors" JSC in Tashkent;

Rus tilida: филиал АО «UzAuto Motors» в городе Ташкенте.

(c) Jamiyatning Toshkent shahridagi filiali joylashgan joy va uning pochta/yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100016, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Elbek ko'chasi, 61-uy.

2.11.4.2. Jamiyatning Xorazm viloyati Pitnak shahridagi filiali:

(a) Filialning to'liq firma nomi:

O'zbek tilida: "UzAuto Motors" AJ Pitnak filiali, Xorazm viloyati;

Ingliz tilida: Branch of "UzAuto Motors" JSC in Pitnak, Khorezm region;

Rus tilida: филиал АО «UzAuto Motors» в городе Питнак, Хораземской области.

(b) Filialning qisqartirilgan firma nomi:

O'zbek tilida: "UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyati filiali;

Ingliz tilida: Branch of "UzAuto Motors" JSC in Khorezm region;

Rus tilida: филиал АО «UzAuto Motors» в Хораземской области.

(c) Jamiyatning Xorazm viloyatining Pitnak shahridagi filiali joylashgan joy va uning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 220400, Xorazm viloyati, Xazarasp tumani, Pitnak shahri, Xazarasp ko'chasi, 1-uy.

2.11.5. Jamiatning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari yuridik shaxs hisoblanadi va Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi. Jamiyat o'z shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, Qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

2.12. Shu'ba va/yoki tobe xo'jalik jamiyatlarini tuzish yoki tugatish to'g'risidagi Qaror Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

2.13. Jamiyat nomuayyan muddatga tuziladi.

2.14. Mazkur Ustavning qoidalari Jamiyat faoliyatining butun muddati mobaynida yoki AUY tomonidan yangi Ustav qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar o'z kuchini saqlab koladi. Ustavda nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda Jamiyat o'z faoliyatini AUY Qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

2.15. Jamiyat o'z faoliyati davomida «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyati va «UzAuto Passenger Vehicles Management» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qabul qilingan buyruq, farmoyish va boshqa hujjatlarning ijrosini, shuningdek yuqori boshqaruv organi tomonidan qaror qabul qilingan taqdirda boshqa aksiyadorlarning ham topshiriqlarini amalga oshiradi.

3- MODDA.

JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA PREDMETI.

3.1. Jamiyat faoliyatining maqsadi avtomobillarni ishlab chiqarish, yig'ish va sotish orqali foyda olishdan iborat.

3.2. Jamiyat faoliyatining predmeti:

- Avtomobillarni ishlab chiqarish, yig'ish va sotish;
- Avtomobillar detallarini va ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish, sotish;

- Eksport va import operatsiyalarni, hamda vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- Marketing;
- Injining xizmatlarini ko'rsatish;
- Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishi uchun zarur bo'lgan Qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa har qanday faoliyat turlarini amalga oshirish.

3.3-moddasi qoidalariga amal qilgan holda Jamiyat Qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlarini amalga oshirishga haqlidir.

3.4. Maxsus ruxsatnomani (lisenziyani) talab etuvchi faoliyat turlari tegishli Davlat organlari tomonidan berilgan tegishli ruxsatnomalar (lisenziyalar) asosida amalga oshirilishi mumkin.

3.5. Jamiyatning kundalik faoliyat turiga, jamiyat Ustavining 3.1 va 3.2- bandlarida ko'rsatib o'tilgan jamiyat faoliyatining maqsad va predmetlarini bajarish orqali foyda topishni ko'zlovchi, yoki ushbu maqsad va predmetlarni bajarish uchun amalga oshiriladigan barcha faoliyat turlari kiradi, xususan, ushbu maqsad va predmetlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan yirik bitimlar, qarz berish va olish, garovga qo'yish va berish, aksiyalar o'tkazish va boshqalar. Shuningdek, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlangan Jamiyatning biznes rejasida keltiriladigan loyihalar va chora-tadbirlar va bitimlar, hamda ular doirasida amalga oshiriladigan ishlar, shuningdek logistika xizmatlari ham Jamiyatning kundalik faoliyat turi hisoblanadi.

4- MODDA.

JAMIYATNING USTAV FONDI

4.1. Jamiyatning Ustav fondi aksiyadorlar tomonidan xarid qilingan Aksiyalarning nominal qiymatidan tarkib topadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha Aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi va So'mda ifodalanishi lozim.

4.2. Jamiyatning Ustav fondi Jamiyat mol-mulkinging Jamiyat kreditorlarining manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilab beradi.

4.3. Jamiyatning aksiyadori Ustav va Qonunchilikda ko'rsatilgan aksiyador huquqlarini unga ushbu Aksiyalarga egalik huquqi Qonunchilikda belgilangan tartibda o'tgan vaqtdan e'tiboran o'tadi.

4.4. Jamiyatning mol-mulki Aksiyalar narxini to'lash hisobiga kelib tushgan pul mablag'lari, mol-mulk va mulkiy huquqlardan iborat ("Ustav fondi"), Jamiyat tomonidan tadbirkorlik faoliyati natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot, olingan foyda, hamda Qonunchilik nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulkdan tarkib topadi.

4.5. Jamiyat Ustav fondining miqdori har birining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 270 784 703 (ikki yuz yetmish million yetti yuz sakson to'rt ming yetti yuz uch) dona jami 1 353 923 515 000 (bir trillion uch yuz ellik uch milliard to'qqiz yuz yigirma uch million besh yuz o'n besh ming) so'mga teng bo'lgan oddiy egasining nomi yozilgan, hujjatsiz oddiy aksiyalardan iborat.

4.6. Jamiyat tomonidan chiqarilgan Aksiyalar narxini to'lash hisobiga tushgan pul mablag'lari Jamiyatning bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

4.7. Jamiyat Aksiyalarining narxini to'lash pul qiymatiga ega mol-mulkn berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Aksiyalar yuridik shaxslarning huquqiy vorisligi tartibida berilishi mumkin.

5- MODDA.

JAMIYAT USTAV FONDINING KO'PAYTIRILISHI VA KAMAYTIRILISHI

5.1 Ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni chiqarish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5.2 Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatdan kam bo'lmagan qiymatda joylashtiriladi.

5.3 Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari uchun uning o'z kapitali (qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda) hisobidan, shuningdek qo'shimcha aksiyalar uchun to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish aksiyalarning nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

5.4 Mazkur Ustavda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yagona aksiyador hamda jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Ustav Fondini oshirish hamda Ustavga tegishli o'zgartirishlarni kiritish to'g'risidagi qarorni qabul qilishi mumkin.

5.5 Jamiyat Aksiyalari umumiy soni Jamiyat Ustavida belgilangan e'lon qilingan Aksiyalarning soni doirasidagina joylashtiriladi.

5.6. Jamiyat tomonidan ustav fondini oshirish maqsadida joylashtiriladigan aksiyalarga qo'shimcha ravishda chiqarilishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalar miqdori 999 996 076 485 000 (to'qqiz yuz to'qson to'qqiz trillion to'qqiz yuz to'qson olti milliard yetmish olti million to'rt yuz sakson besh ming) so'm umumiy qiymatga ega bo'lgan har birining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 199 999 215 297 (bir yuz to'qson to'qqiz milliard to'qqiz yuz to'qson to'qqiz million ikki yuz o'n besh ming ikki yuz to'qson yetti) dona oddiy aksiyalardan iborat.

5.7 Jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risida qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalar va imtiyozli aksiyalarning sonini, ularni joylashtirish shartlari ko'rsatilishi kerak.

Bunda joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma besh foizidan oshmasligi kerak

5.8 Jamiyatning ustav fondini aksiyalar nominal qiymatini kamaytirish yoki ularning umumiy sonini kamaytirish, shu jumladan, Jamiyat aksiyalarining bir qismini keyinchalik bekor qilish yo'li bilan qisqartirish mumkin.

5.9 AUY Ustav fondini kamaytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilishi mumkin. Ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda AUY Ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5.10 Jamiyat, agar bunday kamaytirish natijasida Ustav fondining miqdori Jamiyatning ushbu Ustavi va tegishli o'zgartishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasidagi holatga ko'ra Qonunchilikka muvofiq belgilangan ustav fondining minimal miqdoridan kam bo'lib qolsa, Jamiyat o'zining Ustav fondini kamaytirishga haqli emas.

6-MODDA.

JAMIYATNING AKSIYALARI

6.1. Jamiyat oddiy va imtiyozli aksiyalarni ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda, mazkur Ustav va Qonunchilikda belgilangan tartibda, muddatlarda va shartlarda chiqarishga haqli.

Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma besh foizidan oshmasligi kerak.

6.2. Jamiyatning barcha joylashtirilgan aksiyalari oddiy, nominal, hujjatsiz shaklda chiqarilgan deb hisoblanadi.

6.3. Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni har birining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 270 784 703 (ikki yuz yetmish million yetti yuz sakson to'rt ming yetti yuz uch) dona oddiy egasining nomi yozilgan aksiyalarga teng.

6.4. Jamiyat Aksiyalarni Jamiyat Aksiyadorlari o'rtasida ochiq va yopiq obuna yo'li bilan joylashtiradi, yopiq obunani o'tkazish imkoniyati Qonunchilik bilan chegaralangan holatlar bundan mustasno.

Aksiyalarning ochiq obunasi faqat tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida o'tkaziladi.

6.5. Jamiyat Aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni Qonunchilik va mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartibda chiqarishi mumkin.

Aksiyalarning va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi mazkur chiqarilishni to'xtatib turishga olib kelgan qoidabuzarliklar jamiyat tomonidan bartaraf etilmagan, shuningdek mazkur chiqarilishdagi aksiyalarning va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning oltmish foizidan kam qismi ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda xususiy joylashtirilgan taqdirda amalga oshmagan deb e'tirof etiladi.

Tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda ularning chiqarilishi, joylashtirish hajmidan qat'iy nazar, amalga oshgan deb e'tirof etiladi.

6.6. Aksiyalarga haq to'lash quyidagi shaklda amalga oshirishi mumkin:

- Pul mablag'lari bilan;
- Mulkning har xil turlari bilan;
- Huquqlar, shu jumladan pul bahosiga ega bo'lgan mulkiy huquqlar, shu jumladan Intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar bilan.

7-MODDA.

JAMIYATNING SOF FOYDANI TAQSIMLASH

7.1 Jamiyat tomonidan tadbirkorlik natijasida topilgan har qanday foyda barcha Soliqlar to'langanidan keyin Jamiyat tasarrufida qoladi va (i) Qonunchilik va O'ZNSBUga muvofiq Jamiyatning fondlarini tuzish hamda (ii) Qonunchilik va mazkur Ustavga muvofiq dividendlar to'lash uchun ishlatiladi.

7.2 Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Jamiyat moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan oddiy Aksiyalar bo'yicha dividendlarni ("yillik yoki har yilgi dividendlar") to'lash to'g'risida qarorni qabul qilishga haqli. Aksiya bo'yicha yillik dividendlarni to'lash to'g'risida qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasiga, haqqoniyligi to'g'risida auditorlik xulosasi mavjud bo'lganida, moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asosan AUY tomonidan qabul qilinadi. Yillik dividendlarni to'lash to'g'risida qaror AUY tomonidan yillik AUY o'tkazilishi belgilangan muddatdan kechiktirilmagan muddatda qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

7.3 Aksiyador yoki uning qonuniy vorisi yoki merosxo'ri tomonidan uch yil davomida talab qilib olinmagan dividend AUY qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.

7.4 Dividendlarni to'lash muddati va tartibi AUY qarori bilan belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati bunday qaror qabul qilingan sanadan boshlab 60 (oltmish) kundan oshishi mumkin emas.

Aksiyadorlik jamiyati tuzilgan shartnomaga muvofiq Markaziy depozitariy va (yoki) investisiya vositachilari orqali dividendlar to'lovini amalga oshirish huquqiga ega.

7.5 Dividendlar aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli bo'lgan aksiyalar soni va turlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.6 Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

7.7 Jamiyat O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorlarining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisob varag'iga o'tkazib berishi shart.

7.8 Jamiyatning dividendlarni to'lashga doir cheklolari:

- Jamiyat ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

- Agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

- Agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

8-MODDA.

ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARNI TASHKIL ETISH

8.1. Jamiyat sof foyda hisobidan quyidagi Fondlarni tashkil etishga haqlidir:

- Zaxira fondi;

- Jamiyatning faoliyati uchun zarur bo'lgan, AUY tomonidan belgilanadigan boshqa fondlar.

8.2. Jamiyat zaxira fondini tashkil qiladi va yuritadi, qaysiki Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning ko'rgan zararini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalari haqini to'lab berish, imtiyozli Aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash Jamiyat Aksiyalarini sotib olish uchun ishlatiladi ("Zaxira fondi"). Zaxira fondidan boshqa har qanday maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

8.3. Zaxira fondi umumiy miqdori Ustav fondining kamida 15% (o'n besh foizi) miqdorda shakllantiriladi.

8.4. Jamiyat, uning Zaxira fondi Ustavning 8.3-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar, Zaxira fondiga har yili sof foydadan 5%(besh foizi) miqdoriga teng bo'lgan ajratmalarni amalga oshiradi.

9- MODDA.

AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

9.1. Aksiyadorlar quyidagilarga haqlidirlar:

- Jamiyatning aksiyadorlari reestrda aks etirilish;

- Depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

- Jamiyat daromadlarining bir qismini dividendlar ko'rinishida olish;

- Jamiyat tugatilgan taqdirda Jamiyat mol-mulkingning o'ziga tegishli ulushga muvofiq bo'lgan bir qismini olish;

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

- Ustavga muvofiq Qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyatning moliya- xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va haqqoniy axborot olish;

- olgan dividendini erkin tasarruf etish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va muvofiqlashtirish vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

- ularga yetkazilgan zararlarni o'rnatilgan tartibda qoplab berilishini talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.
- aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar asiyadorlik bitimlariga ovoz berishda birgalikdagi mavqeini shakllantirishga kelishish huquqiga ega;
- Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega.
- aksiyadorlar Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar.

9.2. Aksiyadorlar, to'langan Aksiyalarning egalari sifatida ularning vakolatlariga kiruvchi barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan AUYda ishtirok etadilar. AUYda ovoz berish "bir ovoz beruvchi aksiya" – "bir ovoz" tamoyili asosida amalga oshiriladi, kumulyativ ovoz berishga mazkur Ustavda ko'rsatilgan ruxsat beruvchi qarorlar bundan mustasno.

9.3. Aksiyadorlar quyidagilarga majbur:

- Aksiyalar narxini to'lashni Ustavda va ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan tartibda, miqdorda va usullarda amalga oshirish;
- Qonunchilik va Jamiyat Ustavining qoidalariga rioya qilish;
- Jamiyatning faoliyatiga oid maxfiy ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.

9.4. Minoritar aksiyadorlari Jamiyat boshqaruv organlarining faoliyatiga norasmiy ravishda hujjatlar talab qilib, maxfiy axborot va savdo sirlaridan foydalanish yo'li bilan aralashmasligi kerak.

10-MODDA.

JAMIYATNI BOSHQARISH TUZILMASI

10.1. Jamiyatni boshqarish organlari quyidagilardir:

- Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi;
- Jamiyatning Kuzatuv kengashi;
- Yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organ – Jamiyat Bosh direktori.

11-MODDA.

AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI

11.1. AUY Jamiyatning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. AUY Jamiyat moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

11.2. Yillik AUYdan tashqari o'tkaziladigan yig'ilishlar navbatdan tashqari hisoblanadi. Navbatdan tashqari AUY Kuzatuv kengashining o'z tashabbusiga asosan uning qarori bo'yicha, Taftish komissiyasining yozma talabiga, shuningdek yozma talab berish sanasiga Jamiyatning ovoz beruvchi Aksiyalarining kamida 5% (besh foiziga) ega Jamiyat aksiyadorining yozma talabiga ko'ra o'tkaziladi.

11.3. AUY Qonunchilik, Ustav va AUY to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibga muvofiq o'tkaziladi.

11.4. Agar AUYda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish nihoyasiga yetgan vaqtga kelib, Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi Aksiyalarining jami ellik 50% (ellik foizidan) ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, AUY vakolatli hisoblanadi.

AUY tomonidan AUYda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, shuningdek, AUYni o'tkazish chog'ida umumiy yig'ilishda, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanilishi mumkin.

AUYda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va masofadan turib elektron ovoz berishning umumiy tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Qonunchilikda malakali ko'pchilik yoki bir ovozdan qabul qilish talab qilingan holatlar bundan mustasno.

11.5. AUY vakolati doirasiga quyidagi masalalar kiradi:

- i. Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyat ustavini yangi tahrirda tasdiqlash;
- ii. Jamiyatni qayta tashkil etish;
- iii. Jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash (tugatish komissiyasi) va oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- iv. Kuzatuv kengashi va Minoritar aksiyadorlar qo'mitasing a'zolari sonini aniqlash, ularning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- v. E'lon qilingan aksiyalarning maksimal miqdorini aniqlash;
- vi. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) oshirish;
- vii. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;
- viii. Aksiyadorlik Jamiyatining qonunlarida nazarda tutilgan hollarda o'z ulushlarini sotib olish;
- ix. Jamiyat tashkiliy tuzilmasini, Jamiyatning ijro etuvchi organini shakllantirishni, uning rahbarini saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- x. Jamiyat Taftish komissiyasining (taftishchi) a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek, Taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash;
- xi. Jamiyatning yillik hisobotini va Jamiyatning yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyatning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini tasdiqlash, Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlari asosida uning o'ziga xos shartlarini belgilash;
- xii. Jamiyat daromadlari va zararlarini taqsimlash;
- xiii. O'z vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha Jamiyat auditorlik komissiyasining (auditorining) xulosalarini, shu jumladan, qonunchilikda belgilangan korxonani boshqarishga bo'lgan talablarni bajarish to'g'risidagi hisobotlarni tinglash;
- xiv. Korporativ obligatsiyalarni, shu jumladan aksiyalarga aylantiriladiganlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- xv. Qimmatli qog'ozlar hosilasi to'g'risida qaror qabul qilish;
- xvi. Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini sotib olish bo'yicha qarorlar qabul qilish;
- xvii. imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida, aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda aksiyadorlarning huquqlarini ta'minlash;
- xviii. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qoidalarini tasdiqlash;
- xix. Aksiyalarni ajratish va birlashtirish;

xx. Jamiyatning ijro etuvchi organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning miqdori chegaralarini belgilash;

xxi. Yirik bitimni tuzish, mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etsa, bunda yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

xxii. Ushbu Ustavning 16-moddasida ko'zda tutilgan hollarda Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish. Shu bilan birga, AUY bu kabi bitimlar bo'yicha qarorlar qabul qilganda, Affillangan shaxslar ovoz berish huquqiga ega emas;

xxiii. AUY, Kuzatuv kengashi va Jamiyating ijro etuvchi organi to'g'risidagi Nizomlarni qabul qilish;

xxiv. Jamiyatning hozirgi iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash;

xxv. Boshqa masalalarni qonunga va AUY Nizomiga muvofiq hal qilish.

11.6. Aksiyadorlar AUYning majlislarida shaxsan yoki AJ to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida ish yurituvchi o'z vakillari orqali ishtirok etishlari mumkin.

11.7. Aksiyadorlar AUY kun tartibiga kiritilmagan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga haqli emas.

11.8. Jamiyat AUYning mutlaq vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar, AJ to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, uning tomonidan Jamiyatning Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun topshirilishi mumkin emas.

11.9. AUYning o'tkazilishi to'g'risidagi xabar Jamiyatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek Aksiyadorlarga elektron pochta bo'yicha AUY o'tkaziladigan sanadan kechi bilan yigirma bir (21) kun, lekin ko'pi bilan o'ttiz (30) kun oldin yuboriladi. AUYning o'tkazilishi to'g'risidagi xabar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- Jamiyatning nomi, manzili (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- AUYni o'tkazish sanasi, joyi va vaqti;
- Aksiyadorlar reestri shakllantirilgan sana;
- AUYning kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- AUYni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chog'ida aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni (hujjatlarni) aksiyadorlarga taqdim etish tartibi;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi;
- Aksiyadorlarga va davlat vakiliga berilishi lozim bo'lgan axborotdan (materiallardan) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilguniga qadar va uni o'tkazish vaqtida foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

11.10. Jamiyatning oddiy nominal Aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar AUYda ovoz berishga qo'yilgan masalalar yuzasidan ishtirok etishga haqlidirlar.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

11.11. Agar jamiyatning barcha oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lsa aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. AJ to'g'risidagi Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak, jamiyatning imtiyozli aksiyalari AJ to'g'risidagi Qonunga muvofiq ovoz berish huquqini olishi hollari bundan mustasno. Bunda ushbu moddaning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

11.12. Ovozlarni sanash, aksiyadorlarni AUYda ishtirok etish uchun ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish uchun byulletenlarni berish uchun Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan hisoblash komissiyasi (Sanoq komissiya) tuziladi. Uning xodimlarining soni va tarkibi AUY tomonidan tasdiqlanadi.

11.13. Sanoq komissiyasining tarkibi uch (3) nafar kishidan kam bo'lishi mumkin emas. Sanoq komissiyasi tarkibiga Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyat Taftish komissiyasining a'zolari (quyida belgilangan), shuningdek ushbu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilayotgan shaxslar kirishi mumkin emas. Sanoq komissiyasining vakolatlari uning xodimlarining soni va tarkibi AUY tomonidan tasdiqlangan vaqtdan e'tiboran to Sanoq komissiyasining yangi tarkibi tasdiqlangunga qadar amal qiladi.

11.14. Sanoq komissiyasi AUY kvorumining mavjudligini aniqlaydi, aksiyadorlar (yoki ularning vakillari) tomonidan Umumiy Yig'ilishda ovoz berish huquqining amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarga izoh beradi, ovoz berish uchun kiritiladigan masalalar yuzasidan ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning o'rnatilgan tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanaydi va ovoz berishga yakun yasaydi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, Jamiyatning arxiviga ovoz berish uchun byulletenlarni topshiradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolangan bayonnoma tuzadi. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'tkaziladigan umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin aksiyadorlarning qog'ozdagi yoki elektron jismdagi ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi va jamiyat arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

11.15. AUYning bayonnomasi AUYning yopilishi sanasidan kechi bilan o'n (10) kun ichida ikki nusxada tuziladi. Ikkala nusxa ham Umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va AUYning kotibi tomonidan imzolinishi lozim.

11.16. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi bayonnomasi:

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanasi, vaqti va joyi;
- Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;
- umumiy yig'ilishda ishtirok etadigan aksiyadorlar tomonidan ovozlarning soni;
- rais (rayosati) va umumiy yig'ilish kotibi, yig'ilish kun tartibi.

11.17. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

11.18. Aksiyadorlar AUY har qanday qarorlari ustidan, agar bunday qarorlar Qonunchilik yoki Jamiyatning Ustaviga zid kelsa yoki mos kelmasa, tegishli yurisdiksiyaga ega sudga shikoyat qilish mumkin.

11.19. AUY Qonunchilik va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomga muvofiq chaqiriladi.

11.20. Jamiyatning moliyaviy yil tugaganidan so'ng to'qson kundan kechiktirmay, Jamiyatning ovoz beradigan aksiyalarining kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalalarni kiritish huquqiga egadirlar va kuzatuv kengashi va auditorlik komissiyasiga nomzodlar ko'rsatadilar auditorlar), ularning soni ushbu organning soni tarkibidan oshib ketmasligi kerak.

12-MODDA.

JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI

12.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyati nazorati uchun ma'sul bo'ladi, AJ to'g'risidagi Qonunchilik va Jamiyatning Ustavida AUYga oid ko'rsatilgan masalalar bundan mustasno.

12.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi 5 a'zodan iboratdir. Kuzatuv kengashi a'zolari AUY tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi. Kuzatuv kengashi a'zoriga barcha nomzodlar UzAuto PVM tomonidan saylanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan shaxslar soniga ko'payadi va aksiyador bir nomzod uchun ovozlarni to'liq to'ldirishga yoki ikki yoki undan ortiq nomzodlarga tarqatishga haqlidir. Eng ko'p ovoz olgan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylanadi.

12.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan muddatga qayta saylanishlari mumkin. Yakkabosh ijro organi (Bosh direktor), Ichki audit xizmati, taftish komissiya a'zolari, shuningdek Jamiyatda mehnat shartnomalari bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishlari mumkin emas.

12.4. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni ushbu Ustavda nazarda tutilgan miqdorning 80% (sakson foiz)dan kamayib ketgan hollarda Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun navbatdan tashqari AUY chaqirishi shart.

12.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatiga quyidagi masalalarni hal etish kiradi:

i. Jamiyatning ijro etuvchi organining jamiyat rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotini muntazam tinglash bilan Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

ii. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, AJ to'g'risidagi qonun bilan belgilangan hollar bundan mustasno;

iii. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

- iv. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanasi, vaqti va joyini aniqlanish;
- v. AUY o'tkazilishi to'g'risida xabardor qilish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

Shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

- vi. Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyat ustavining yangi tahririni tasdiqlash to'g'risidagi masalani umumiy yig'ilish qarori uchun kiritish;
- vii. mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil qilish;
- viii. Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi qoidalarini tasdiqlash, agar ushbu lavozimni joriy qilish Jamiyat ustavida nazarda tutilgan bo'lsa;
- ix. Jamiyatning yillik biznes-rejasini oldindan tasdiqlash, shuningdek AUY vakolatiga kiruvchi boshqa masalalar;
- x. Ichki audit xizmatini tuzish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek hisobotlarni har chorakda eshitish;
- xi. Jamiyatning ijro etuvchi organi faoliyatiga taalluqli har qanday hujjatlarga ruhsat berish va ularni ijro etuvchi organdan Jamiyat kuzatuv kengashiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun olish. Qabul qilingan hujjatlar Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari tomonidan faqat xizmat maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin;
- xii. AUYga Jamiyatning Taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensasiya miqdori bo'yicha tavsiyalar berish;
- xiii. AUYga dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi bo'yicha tavsiyalar berish;
- xiv. Jamiyatning zaxira va boshqa mablag'laridan foydalanish;
- xv. Filiallar tashkil etish va Jamiyatning vakolatxonalarini ochish;
- xvi. Sho'ba va filiallarini tuzish, va ularni tugatish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish;
- xvii. Yirik bitimni tuzish, mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigacha tashkil etsa, bunda yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar bundan mustasno;
- xviii. Mazkur Ustavning 16-moddasida nazarda tutilgan hollarda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlarni, shu jumladan, affillangan shaxslar bilan Jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimni tasdiqlash. Shu bilan birga, Jamiyatning affillangan shaxsi muhokamada ishtirok etish huquqiga ega emas va u Jamiyatning Kuzatuv kengashi bunday bitim to'g'risida qaror qabul qilganida ovoz berish huquqiga ega emas;
- xix. Konun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlarda ishtirok etishi bilan bog'liq bo'lgan bitimlarni tuzish;
- xx. Qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish);
- xxi. korporativ obligasiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga aylanishi mumkin bo'lgan qarorlarni qabul qilish;
- xxii. Qimmatli qog'ozlarning hosilasini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- xxiii. Jamiyatning ishlab chiqarish ob'ektlarining joylashgan joyini o'zgartirish;
 - xxiv. Buxgalteriya siyosatida va usullarida, shu jumladan, amortizasiya va amortizasiya darajasidagi o'zgarishlarni qonunchilik asosida o'zgartirishlarni qilish;
 - xxv. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan chegaralar doirasida xayriya (homiylilik) yoki bepul yordam berish bo'yicha qaror qabul qilish (qabul qilish) va qaror qabul qilish shartlarini belgilash, ushbu tartibni Jamiyatning korporativ veb saytida joylashtirish imkoniyati;
 - xxvi. Zaruriyat tug'ilgan holatlarda Kuzatuv kengashi qoshida tegishli masalalar bo'yicha qo'mitalarni (ishchi guruhlarni) tashkil etish;
 - xxvii. Jamiyatning bosh direktori o'rinbosarlarini nomzodlarini ma'qullash;
 - xxviii. Komplaens xizmati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash;
 - xxix. Komplaens xizmatining boshlig'ini tayinlash, shuningdek uning hisobotlarini eshitish;
 - xxx. majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
 - xxxi. jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;
 - xxxii. avval chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;
 - xxxiii. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
 - xxxiv. jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - xxxv. qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - xxxvi. jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - xxxvii. jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
 - xxxviii. ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash;
 - xxxix. jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash
 - xl. Jamiyat bosh direktorining o'rinbosarlarini, ijrochi direktor va uning o'rinbosarlarini hamda boshqaruvchi direktorlarni bir yil muddatga lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;
 - xli. Konunchilikda, ushbu Ustavga va Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal qilish.
- Kuzatuv kengashining vakolatiga taalluqli masalalar Jamiyatning Bosh direktorining qaroriga o'tkazilishi mumkin emas.

12.6. Kuzatuv kengashining Raisi ushbu kengash a'zolari tomonidan uning tarkibi a'zolarining umumiy sonidan ko'pchilik ovozi bilan saylaydi. Kuzatuv kengashining Raisi uning

faoliyatini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularni boshqaradi, majlislarda bayonnomaning yuritilishini tashkil etadi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga raislik qiladi.

Kuzatuv kengashining majlislari kamida har chorakda bir marta o'tkaziladi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashi a'zolarining kamida 80% (sakson foizini) tashkil etishi kerak. Bunda a'zolar axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etishi mumkin.

Rais Kuzatuv kengashining majlislarini o'z tashabbusiga ko'ra yoki Kuzatuv kengashining har qaysi boshqa a'zosi, Taftish komissiyasi yoki Bosh direktorning talabiga ko'ra chaqiradi. Kuzatuv kengashi Raisi Kuzatuv kengashining a'zolariga bunday majlisdan kamida 10 (o'n) kun avval majlisning chaqirilishi to'g'risidagi majlisning sanasi, vaqti, joyi va kun tartibi ko'rsatilgan xabarnomalar, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi yuborilishini tashkil etadi.

12.7. Kuzatuv kengashining majlislarida ishtirok etish O'zbekistonda yoki Kuzatuv kengashi tomonidan kelishib olingan boshqa shunday joyda shaxsan amalga oshirilishi lozim. Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Bir a'zoning ovozini boshqa a'zoga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

12.8. Kuzatuv kengashining bayonnomalari Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinishi mumkin.

12.9. Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatning Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni so'rashga haqlidir.

12.10. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan keyin kechi bilan (10) kun ichida rasmiylashtirilishi lozim. Kuzatuv kengashi majlis bayonnomasi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- majlisning vaqti va joyi;
- majlisda ishtirok etuvchi shaxslar, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar;
- ovoz berish natijalari; va
- majlisda qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi bayonnomasi majlisda ishtirok etuvchi Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan imzolanadi, ular bayonnoma to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

13-MODDA.

JAMIYATNING IJRO ETUVCHI ORGANI

13.1. Bosh direktor Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi Ijro etuvchi organi hisoblanadi. Bosh direktor, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan xorijiy menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida UzAuto PVM tavsiya qilgan nomzodlar safidan saylanadi. Bosh direktor lavozimiga nomzod ko'rib chilganidan keyin Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ushbu masala yuzasidan ko'pchiligi ovoz bilan Bosh direktor saylanishi to'g'risidagi qaror qabul qiladi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Bosh direktorning nomzodi tasdiqlanganidan va saylangandan keyin, Kuzatuv kengashining Raisi Jamiyat nomidan u bilan mehnat shartnomasini (kontrakti) imzolaydi.

13.2. Bosh direktor o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishi uchun javobgar bo'ladi. Bosh direktorning maqomi va vazifalari Jamiyatning Ijro etuvchi organi to'g'risidagi nizom va Bosh direktorning mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi.

13.3. Bosh direktor Jamiyat hujjatlarining to'g'ri va vijdonan yuritilishi uchun javobgar bo'ladi.

13.4. Bosh direktor vakolatlariga Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikning barcha masalalar kiradi, Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno, jumladan, lekin cheklanmagan holda:

i. Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini uchinchi shaxslar, boshqa tashkilotlar va organlar bilan munosabatlarda ifoda etish;

ii. Qonunchilik talablariga rioya etgan holda balans qiymati bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat sof foyda aktivlari qiymatining 15 (o'n besh) foizidan kamroq bo'lgan mol-mulkka nisbatan tuzilgan bitim yoki bir nechta o'zaro bog'liq bitimlar bo'yicha Jamiyatning mol-mulki (aktivlari) va pul mablag'larini tasarruf etish, mazkur Ustav bilan AUU yoki Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan bitimlar tuzish holatlari bundan mustasno.

iii. Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;

iv. banklarda hisob raqamlarini ochish;

v. Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar, yo'riqnomalar va farmoyishlarni chiqarish;

vi. Jamiyatning boshqaruv tuzilmasiga xodimlarning tasdiqlangan soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

vii. Jamiyatning Sho'ba xo'jalik jamiyatlari va vakolatxonalarini to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

viii. Jamiyat filiallari va vakolatxonalarining boshqaruv xodimlari uchun kompensasiya puli miqdorini aniqlash;

ix. Jamiyatning xodimlari bilan mehnat shartnomalarini (kontraktlarni) tuzish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek Jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyatlari va vakolatxonalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish;

x. rag'batlantirishlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, oylik ish haqi va unga ustamalarning miqdorini, shuningdek xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha turli qo'shimcha va kompensasiya puli to'lovlarini belgilash;

xi. kuzatuv kengashi bilan kelishilgan rahbarlar va direktor o'rinbosarlarini tayinlash va vakolat berish tartibini tasdiqlash;

xii. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tegishli nomzodni ma'qullaganidan so'ng komplaens xizmatining boshlig'ini tayinlash. Bosh direktor Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanmasdan turib, komplaens xizmatining boshlig'ini vaqtincha vazifasini yuklagan holda tayinlash huquqiga ega;

xiii. Bosh direktor Jamiyatning ijro etuvchi organi tarkibiga kirmaydigan amaldagi direktorlar va boshqaruvchi direktorlarni Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanishidan oldin vaqtincha vazifasini yuklagan holda tayinlash huquqiga ega.

13.5. Bosh direktor Qonunchilik va mazkur Ustav nazarda tutilgan Bosh direktor vazifalarini bajarmaganligi yoki tegishlicha bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun aksiyadorlar oldida javobgar bo'ladi.

13.6. Bosh direktor tomonidan Ustavning qo'pol buzilishi yoki uning harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Jamiyatga zararlar yetkazilishi holatida Kuzatuv kengashi Bosh direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilishga haqlidir.

13.7. Bosh direktorning vakolatlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilgan Kuzatuv kengashi Bosh direktorning vazifasini bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida hamda Bosh direktorni saylash va tayinlash bilan bog'lik bo'lgan bayonnomani qabul qilish uchun navbatdan tashqari AUYni chakirish to'g'risida bayonnoma qabul qiladi.

13.8. Jamiyat bosh direktorini tayinlash xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida amalga oshiriladi.

13.9. Jamiyat o'z faoliyati davomida «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyati va «UzAuto Passenger Vehicles Management» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qabul qilingan buyruq, farmoyish va boshqa hujjatlarning ijrosini amalga oshiradi.

14-MODDA.

JAMIYATNING TAFTISH KOMISSIYASI

14.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun jamiyatning taftish komissiyasini tuzish (taftishchisini saylash) mumkin.

Taftish komissiyasi (taftishchi) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.

Bir shaxs Jamiyatning Taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ko'p saylanishi mumkin emas.

Jamiyat Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari, shuningdek ayni Jamiyatda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlashlari O'zbekiston Respublikasining "Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-760-son Qonunining 3-moddasiga asosan o'zgartirildi. mumkin emas.

15.2. Jamiyat Taftish komissiyasi vakolatlari va faoliyatining tartibi mazkur Ustav va AUY tomonidan tasdiqlanadigan Taftish komissiyasi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

15.3. Jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyatining audit qilishni kamida bir yilda bir marta o'tkazadi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (audit qilish) bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha Taftish komissiyasining, AUY, Kuzatuv kengashining qaroriga yoki Jamiyat ovoz beruvchi Aksiyalarining jami bo'lib kamida 5% (besh foizga) egalik qiluvchi aksiyadorning talabiga binoan amalga oshiriladi.

15.4. Taftish komissiyasi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalarini taftish o'tkazishni tashabbus qilgan organ yoki aksiyadorga taqdim etadi. Taftish komissiyasi o'z majlislarida bayonnomalar yuritadi.

15.5. Taftish komissiyasi Jamiyatning manfaatlari uchun xavf tug'ilganda yoki Jamiyatning mansabdor shaxslari yo'l qo'ygan suiiste'molliklar aniqlanganda aksiyadorlarning vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishi shart.

15.6. Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirishning yakunlari bo'yicha, Taftish komissiyasi yoki Auditor xulosani tayyorlaydi, unda quyidagilar bo'lishi lozim:

- Jamiyatning hisobotlarida yoki boshqa moliyaviy hujjatlarida bo'lgan ma'lumotlar haqqoniyligiga baho berish;

- Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish davomida buxgalterlik hisobini yuritish va moliyaviy hisobotini taqdim etish tartibini, shuningdek Qonunchilikni buzish holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ustavning mazkur 15.6-bandida ko'rsatilgan axborotdan iborat xulosa Jamiyat AUYda tinglanadi.

15.7. Taftish komissiyasi har chorakda Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisiga Affillangan shaxslar bilan bitimlar yoki Jamiyatda yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek bunday bitimlarni tuzishga nisbatan Qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish to'g'risida xulosani kiritadi.

15.8. Jamiyatning Taftish komissiyasi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning moliyaviy hujjatlarini audit qilish, mol-mulkni inventarizasiya qilish bo'yicha Taftish komissiyasining xulosasi, ko'rsatilgan hujjatlarni birlamchi buxgalteriya hujjatlari ma'lumotlari bilan taqqoslash;

- Jamiyat nomidan tuzilayotgan shartnomalar qonuniyligi, amalga oshirilayotgan bitimlar, kontragentlar bilan hisob-kitoblar qonuniyligini tekshirish;

- buxgalteriya va statistik hisob yuritilishi amaldagi me'yoriy qoidalar bilan mos kelishini tahlil qilish;

- Jamiyat moliyaviy-xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatda belgilangan normativlarga, qoidalarga va h.k. rioya qilinishini tekshirish;

- Jamiyatning moliyaviy ahvolini, uning to'lashga qodirligini, aktivlar likvidligini, o'z va qarzga olingan mablag'lar nisbatini tahlil qilish, korxonaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash zaxiralarini aniqlash va Jamiyatni boshqarish organlari uchun tavsiyalarni ishlab chiqish;

- mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchilar tomonidan byudjetga to'lovlarni o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishi, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi, boshqa majburiyatlar uzilishini tekshirish;

- soliq inspeksiya, statistika organlari, davlat boshqaruv organlari uchun balanslar, hisobot hujjatlari to'g'ri tuzilishini va Jamiyat buxgalteriya normalariga amal qilinishini tekshirish;

- Bosh direktori tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'riligi, ularning Ustaviga, Bosh direktor to'g'risidagi nizomga va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlariga muvofiqligini tekshirish;

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlarini tahlil qilish, Qonunchilikga va boshqa normativ hujjatlariga zid qilganda, ularni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish.

15-MODDA.

AFFILLANGAN SHAXSLAR BILAN BITIMLAR

15.1. Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan yoxud aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan aksiyadorlarning malakali ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bunda jamiyatning affillangan shaxsi bilan aktivlarining qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining o'n yoki undan ko'p foizini tashkil etadigan bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

15.2. Agar Jamiyat Kuzatuv kengashining ikkita va undan ko'proq a'zolari Affillangan shaxslar bo'lsa, bitim bo'yicha qaror AJ to'g'risidagi Qonunda va mazkur Ustavda belgilangan tartib va muddatlarda Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bu holda, Affillangan shaxs bilan bitimni ma'qullash to'g'risida qaror Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlarning kvalifikatsiyalangan ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

15.3. Jamiyatning Affillangan shaxsi muhokama qilishda ishtirok etishga haqli emas hamda Jamiyat Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilishda ovoz berishga haqli emas.

15.4. Agar Affillangan shaxs bilan bitim bir vaqtning o'zida yirik bitim bo'lib hisoblansa, unda uni amalga oshirish tartibiga AJ to'g'risidagi Qonunda va mazkur Ustavning 11.5 va 12.5-moddalarida belgilangan yirik bitimni tuzish qoidalari qo'llaniladi.

15.5. Agar affillangan shaxslar bilan tuzilayotgan bitimlar "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 91-moddasida keltirilgan istisno xolatlari mavjud bo'lgan taqdirda, affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar bo'yicha talablar tadbiiq etilmaydi.

16-MODDA.

ICHKI AUDIT, KOMPLAENS XIZMATI VA JAMIYAT FAOLIYATI USTIDAN NAZORAT

16.1. Agar Jamiyat balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravar miqdoridan oshib ketgan aktivlarga ega bo'lsa, Jamiyatda ichki audit xizmati («Ichki audit xizmati») tuziladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv kengashiga hisob beradi.

16.2. Ichki audit xizmati Jamiyat Ijro etuvchi organi, vakolatxonalar va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, Qonunchilikka, ta'sis va boshqa xujjatlarga rioya qilinishini qilish, buxgalterlik hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq va haqqoniy aks ettirilishini ta'minlanishini, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning qoidalari va tartibiga, shuningdek Qonunchilik bilan belgilangan Jamiyatni boshqarish bo'yicha talablariga rioya qilish orqali amalga oshiradi.

16.3. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini Ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi.

16.4. Jamiyatning ichki audit xizmati ichki nazoratni, shu jumladan ustav kapitalining 50 foizidan ortig'i Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar yuzasidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni amalga oshiradi.

16.5. Jamiyatning Kuzatuv kengashiga hisobot beradigan va korporativ qonunchilikka rioya qilishni nazorat qilish funksiyasini amalga oshiruvchi korporativ maslahatchining lavozimi joriy yetilishi mumkin.

16.6. Jamiyatni muvofiqlashtirishni monitoring qilish uchun javobgar bo'lgan tarkibiy bo'linma - Komplaens xizmati tuziladi.

16.7. Komplaens xizmati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida ishlaydi, to'g'ridan-to'g'ri Jamiyat Kuzatuv Kengashiga bo'ysunadi, Bosh direktor va Jamiyatning Kuzatuv Kengashiga hisobot beradi.

16.8. Jamiyatning komplaens xizmati Jamiyatning Ichki audit xizmati faoliyatini nazorat qilish va baholashga haqlidir.

16.9. Komplaens xizmati boshlig'ini tayinlash va u bilan mexnat shartnomasini tuzish Bosh direktor tomonidan 13.4 (xii)-moddani hisobga olgan holda Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tegishli nomzodni tasdiqlash bilan amalga oshiriladi.

17-MODDA.

JAMIYATDA HISOB YURITISH VA HISOBOTLAR

17.1. Jamiyat buxgalteriya hisobotini yuritadi va Qonunchilik bilan belgilangan tartibda moliyaviy hisobotlarni taqdim etadi.

17.2. Konunchilikga muvofiq Ijro organi Jamiyat buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va to'g'riligi, har yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli organlarga

o'z vaqtida takdim etilishi uchun, shuningdek aksiyadorlarga va kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyatning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar uchun javobgar bo'ladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga takdim etiladigan Jamiyatning yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobidagi ma'lumotlarning to'g'riligi Jamiyatning Taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

17.3. Jamiyat Qonunchilik bilan belgilangan tartibda va Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini audit qilish va Jamiyatga auditorlik hisobotini taqdim etish uchun mustaqil auditorlik kompaniyasini jalb etishi lozim. Auditorlik kompaniyasi Jamiyat hisobidan kamida bir yilda bir marta Jamiyatning buxgalteriya daftarlari va yozuvlarining tekshiruvini amalga oshiradi («Auditor»). Auditorlik kompaniyasi audit natijalariga ko'ra moliyaviy hisobot barcha moddiy jihatlardan tegishli ravishda rasmiylashtirilgan-rasmiylashtirilmaganligi, Jamiyatning moliyaviy holati O'ZNSBU va XMHSga mos kelishi-kelmasligi to'g'risidagi xulosani taqdim etadi.

17.4. Jamiyatning yillik hisoboti yillik Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasigacha kamida 10 (o'n) kun oldin Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki ma'qullanishi kerak. Jamiyatning yillik hisoboti Qonunchilik bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun belgilangan muddatidan kech bo'lmagan muddatda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

18-MODDA.

JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

18.1. Jamiyat o'z aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori bo'yicha qo'shib olish, qo'shish, ajratib chiqarish, bo'lish va qayta tuzish shaklida qayta tashkil etilishi mumkin. Jamiyatni qayta tashkil etish tartibi Qonunchilik bilan belgilanadi.

18.2. Jamiyatni tugatish Qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Jamiyat quyidagi holatlarda tugatilishi mumkin:

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;
- O'zbekiston Respublikasi sudining qaroriga muvofiq;
- Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Jamiyatni tugatish uning huquq va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa Shaxslarga o'tmagan holda Jamiyat faoliyatining to'xtatilishiga olib keladi.

“UzAuto Motors”
aksiyadorlik jamiyati
bosh direktori

BO INGE ANDERSSON